

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

RAXIT KASALIGIGA CHALINGAN BOLALARDA HAMSHIRALIK YONDASHUVI

Fayzullayeva Shoira Alisherovna,
Pastdarg'om Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi
texnikumi Pediatriyada hamshiralik ishi fani o'qituvchisi

Pardayeva Nilufar Tashtemirovna,
Samarqand Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi
texnikumi Asab va ruhiy kasalliklari fani o'qituvchisi

Gafurova Dilorom Vaxobovna
Psixiatriya va narkologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya:

Bugungi kunda bolalar orasida uchraydigan go'daklik davri kasalliklarining asosiy qismini raxit tashkil etadi. Shuning uchun ushbu kasallik haqida ma'lumotlarga ega bo'lib, o'z vaqtida oldi olinsa, davolash ishlari o'z vaqtida boshlansa ushbu kasallikni to'liq nazorat qilish mumkin va yuzaga kelasigan asoratlardan holi bo'ladi. Ushbu maqolada raxit kasalligini keltirib chiqaruvchi sabablari, klinik belgilari, davrlari, davolash, oldini olish yoritilgan.

Kalit so'zlar: Raxit kasalligi, bolalarda uchrashi, D vitamin, quyosh nuri, suyak qiyshayishi, kalsiy va fosfor almashinuvi, raxitik bilakuzuklar.

NURSING APPROACH IN CHILDREN WITH RICKETS

Anatation:

Rickets is the main part of childhood diseases among children today. Therefore, if you have information about this disease, if you prevent it in time, if you start treatment in time, you can fully control this disease and it will be free of complications. This article describes the causes, clinical signs, periods, treatment, and prevention of rickets.

Key words: Rickets, children's encounter, vitamin D, sunlight, bone curvature, calcium and phosphorus metabolism, rickets bracelets.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Xozirgi paytda dunyo bo'yicha uchraydigan kasalliklar turi juda ko'p. Bular orasida bolalar orasida uchraydigani raxit kasalligi xisoblanadi. Bu kasallikni oldini olish borasida butun dunyoda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan bizning yurtimizda sog'lom bola yurt kelajagi shiori ostida bolaning tug'ilgunicha va tug'ilgandan keyin ham kasalliklardan himoya qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xattoki onaning ham sog'lig'iga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buning misoli safatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni bilan reproduktiv yoshdagi va homilador ayollar, bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish, perinatal markazlarni zarur tibbiy texnika va buyumlar bilan jihozlash, ularni malakali kadrlar bilan ta'minlash vazifasi belgilandi.

O'sib borayotgan bola organizmiga vitamin D zarur ekanligi aniqlangan. Vitamin D ning asosiy vazifasi shundan iboratki, vitamin D fosfor bilan kalsiyni o'zlashtirib olish, ularning suyaklarda to'planib borish jarayonini idora etadi va shu bilan bolaning to'g'ri o'sib borishi hamda suyaklar hosil bo'lishiga yordam beradi. Vitamin D ovqat bilan birga kirmasdan turib, odamning organizmida provitamin D dan hosil bo'la oladigan vitamindir. Raxitning kelib chiqishida vitamin A, B, C larning yetishmasligi ham ahamiyatga ega. Raxitning kelib chiqishida asosiy sabab gipovitamin D.

Raxit — bu asosan go'daklar va yosh bolalar kasalligi bo'lib, kasallik davomida suyak to'qimasi va tishlar hosil bo'lishi jarayoni buziladi, shuningdek suyak mineralizatsiyasi yetishmovchiligi rivojlanadi. Ko'p odamlar raxitni shunchaki D vitamini yetishmasligi (kaltsiferollar) deb o'ylashadi, ammo aslida raxitning sabablari faqat shu bilan tugamaydi. Raxit paydo bo'lishining asosiy sabablaridan biri faol rivojlanish jarayonida fosfor va kalsiy moddalarining ham yetishmasligidir. Dastlabki xarakterli o'zgarishlar uzun suyaklarning so'nggi qismlarini rentgenografiyasida aniqlanadi.

Ko'pincha raxit bo'lgan paytda smazmofiliya, ya'ni nerv muskul sistemasining qo'zg'alish holati: to'satdan boshlanadigan umumiy klonik tirishish xurujlari rivojlanadi. Shuningdek, ko'krak yoshidagi kasallik xususiyatlaridan diatezlar, ya'ni organizmning turli kasalliklarga moyillik xolatlari tez-tez uchrab turadi. Raxitda ta'm bilish refleklari bo'shashadi. Bu xolat raxit bolalarda ko'p kuzatildi. Raxit osteoidlarni yetarli darajada mineralizasiya bo'lmasligi bilan yuzaga keladigan suyaklardagi buzilishlar bilan xarakterlanadi. Bir yoshdan katta bolalarda va



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

kattalarda bunday holat osteomalyasiya va osteoporoz deyiladi. Ko'p yillar mobaynida raxitning asosiy sababi vitamin D tanqisligi deb hisoblangan. Lekin oxirgi yillarda qonda vitamin D metabo'litlari konsentrasiyasini aniqlash imkoniyati paydo bo'lgandan song D gipovitaminozi raxit rivojlanishi sabablaridan faqat biri ekanligi aniqlandi. Hozirgi vaqtda raxitning yetakchi sababi fosfatlar va kalsiy tuzlarining yetishmasligi, lekin bunda gipokalsiemiya qaraganda gipofosfatemiya ko'proq uchrashi va katta ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan. Erta yoshdagi bolalarda fosfat va kalsiy tuzlarining tanqisligi sabablari quyidagilar:

Chala tug'ilish (homilaga kalsiy va fosfor tushishi homiladorlikning oxirgi oylarida ko'payadi)

Noto'g'ri ovqatlantirish natijasida kalsiy va fosfor yetarli darajada organizmga tushmasligi;

Intensiv o'sish davrida minerallarga bo'lgan talabning yuqoriligi (raxit - osayotgan organizm kasalligi)

Oshqozon - ichak trakti, buyrak, suyaklar orqali fosfor va kalsiy transportining buzilishi, buning sababi organlar patologiyasi yoki ferment sistemasining yaxshi rivojlanmaganligidir.

Nomuvofiq ekologik sharoit (organizmda xrom, stronsiy toplanishi, temir, magniy tanqisligi)

Irsiy moyillik (misol uchun, ohil bolalar qiz bolalarga qaraganda, raxitni og'ir o'tkazadi, O (I) guruhdagi bolalar raxit bilan kam kasallanadi, A (II) guruhdagilar ko'proq kasallanadi)

Endokrin buzilishlar (qalqonsimon bez va qalqonsimon bez oldi bezi funksiyasining buzilishi)

Ekzo- va endogen vitamin D tanqislikligi.

Shuni ham yodda tutish kerakki, raxitning patogenezi nafaqat minerallar almashinuvining buzilishi, balki metabolizmning boshqa turlarining patologik muammolari bilan xarakterlanadi, bu ko'plab organlar va tizimlarning funksional holatiga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatadi. Bolalarda suyak tizimi shakllanishining tabiiy jarayonini buziladi.

Kuzatuv natijalari. Olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, raxit kasalligiga chalingan bolalarning bunday bo'lishiga sabab, ko'pida onaning sifatsiz ovqatlanishi, kalsiysiz oziqalarni iste'mol qilganlagi, muxit sharoiti ham kuchli ta'sir qilganini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari sun'iy ovqat iste'mol qilgan onalardi bolalarida raxit kasalligi ko'p uchraganini kuzatdik.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Raxit profilaktikasi uchun «vitamin zarblari» usulidan foydalansa bo'ladi, bunda bolaga 6-8 hafta davomida haftasiga bir marta 20000 XB dan vitamin berib turiladi. Bu usul bo'yicha o'tkaziladigan profilaktikani patronaj hamshira yo poliklinikada yoki bolaning uyida amalga oshiradi. Chala tug'ilgan bolalarda raxit profilaktikasi zichlashtirilgan usulga muvofiq vitamin D yuborib turish yo'li bilan amalga oshiriladi, bunda 10-12 kun davomida bolaga 200000-400000 XB vitamin beriladi. Davoning asosiy usullari bolaning dietogigiena rejimini to'g'ri tashkil etish, vitamin D, fizioterapiyani qo'llab borishni o'z ichiga oladi. Bolaning ovqati uning oqsillar, yog'lar, uglevodlar, vitaminlar va mikroelementlarga bo'lgan ehtiyojini juda bekamu ko'st qondiradigan bo'lishi kerak. Yarim yoshga to'lmagan bola uchun yaxshi ovqat ko'krak sutidir, bola aralash va sun'iy yo'l bilan boqilayotgan bo'lsa, nordon sut aralashmalari (kefir) hammadan yaxshi ovqat bo'lib hisoblanadi.

Davo uchun beriladigan vitamin D dozasi bolaning yoshiga bog'liq emas, uning dozasi raxit jarayonining og'ir-yengilligi, bolaning qay usulda boqilayotgani va qanday sharoitlarda yashayotganiga qarab belgilanadi. Raxitga vitamin D2 bilan davo qilishning bir nechta usuli bor. Shulardan hammadan keng rasm bo'lgani va ko'proq naf beradigani preparatni har kuni o'rtacha terapevtik dozalarda 1,5-2 oy davomida berib turishdir. Vitamin D bilan davo qilishning boshqa usullaridan «vitamin zarblari» bilan davolashni ko'rsatib o'tish kerak, bunda vitamin D 1-2 oy davomida haftasiga 1 marta 100 000 XB dan yoki 1-1,5 oy davomida haftasiga 1 marta 200 000 XB dan berib turiladi. «Vitamin zarblari» bilan davolash usuli ancha qulay usuldir, chunki bunda vitamin D ning haftalik butun dozasi bir yo'la beriladi. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, xar bir oila sog'lom bola dunyoga keltiraman desa uni onaning qornida rivojlanish davridanoq boshlash kerak. Bunda bolaga ijobiy ta'sir qiladigan vitaminli ovqatlar ko'proq iste'mol qilishi ayniqsa kalsiy elementiga boy bo'lgan tabiiy taomlar, mevalar shunga o'xshash narsalar ko'proq tanavul qilish kerak. Tug'ilganidan so'ng quyosh nuri ostida ko'proq sayr qilish ko'proq sut maxsulotlari iste'mol qilish, o'z vaqtida shifokor ko'rigiga olib borib katta qilishlarini tavsiya qilib qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Qoraxo'jayev va boshqalar "Bolalar kasalliklari propedivtikasi" Tosh-2006
2. Daminov T.A., Xalmatova B.T. Boboyeva U.R. "Bolalar kasalliklari" Tosh2012
3. M.F.Ziyaeva. Z.O.Rizayeva «Bolalarda hamshiralik parvarishi». Toshkent, «Fan va texnologiya» 2012 yil.
4. K.S Inomov. «Pediatriyada hamshiralik ishi» Toshkent, 2007 yil.
5. Internet saytlari: www.pediatria.jurnal.ru

